

yondashuvlar samaradorligining noaniqligi bilan tavsiflanadi. Bozor muhitining ushbu va unga hamroh bo‘lgan omillari manfaatdor tomonlarni integratsiyalashgan hisobot kabi muqobil kontseptsiyalarni ishlab chiqish va tarqatish, shuningdek, XMH rivojlanishiga ko‘p yo‘nalishli ta‘sir ko‘rsatadigan moliyaviy hisobotlarni buzib ko‘rsatish uchun sharoit yaratadi [5].

***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:***

1. Родченков М.В. Проблемы трансформации национальных учётных систем под эгидой МСФО и их влияние на стоимость учётного процесса // Вестник Московского университета. – Серия 6. Экономика. – 2022. – вып. 3. – С. 22–42.
2. Рожнова О. В. Развитие МСФО: проблемы и пути их решения в условиях цифровизации // Экономика и управление: проблемы, решения. – 2019. – Т. 15. – № 3. – С.27-37.
3. Соловьева О.В. Международные стандарты финансовой отчетности. Концептуальные основы подготовки и представления финансовой отчетности [Текст] / О.В. Соловьева. — М. : Эксмо. — 2010. — 288 с.
4. Mirzayev D. A., Arzikulov S. D., Vahobova G. I. Axborot tizimlarini g‘aznachilikda qo‘llashning xorijiy tajribalari //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 3. – С. 624-628.
5. Хорин А.Н., Бровкин А.В. Цели и особенности анализа интегрированной отчетности, корпоративного капитала и комплексной результативности бизнес-процесса // Креативная экономика. – 2018. – Том. 12 – № 4 – С. 499–512.
6. Mirzayev D. A. Bank sektorini raqamlashtirish tushunchasi, mohiyati va bosqichlari //Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o‘rni. – 2023. – Т. 1. – №. 1.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYA-BANK TIZIMINI  
RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI**

***Namozov Olim Botirovich***

*TDIU, “Iqtisodiyot” kafedrasida dots., (PhD)*

***Alixanov Pahlavon Shuhrat o‘g‘li***

*TDIU, “Iqtisodiyot” fakulteti I-71 guruh*

Ma‘lumki, mamlakatimiz prezidenti zamonaviy va rivojlanayotgan dunyoda yurtimizni jahondagi o‘rnini yuqorilashi uchun kerakli chora-tadbirlar o‘tkazishni ma‘lum tashkilotlarga yuklamoqdalar. Jumladan, yurt boshimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-sonli “Respublikada bank tizimini yanada rivojlantirish va barqorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari bunga yaqqol misol bo‘ladi.<sup>55</sup>

Bank tizimini isloh qilish mamlakat iqtisodiyoti o‘shishiga ulkan hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, mamlakat aholisining yashash sharoitlari, bank tizimini takomillashtirish orqali yaxshilanadi.

<sup>55</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 12.09.2023 yildagi “Respublikada bank tizimini yanada rivojlantirish va barqorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari.

Shu bilan birga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik subyektlari bilan to‘laqonli hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo‘jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatlarning rivojlanganlik darajasiga qarab, barcha mamlakatlarning iqtisodiyoti va bank tizimi bir-biridan farq qiladi. Jumladan, yevropa davlatlari bank tizimlari juda ham sifatli hamda tez xizmat ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Boshqa davlatlarda esa bank tizimidagi ba‘zi nuqsonlarni inobatga olmagan ular ham ma‘lum jabhalarda yevropa banklaridan farqlanadi.<sup>56</sup>

Ma‘lumki bank tizimlari ikki hamda 3 bosqichli bo‘lishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston bank tizimi 2 bosqichli. Ushbu tizim Markaziy bank hamda tijorat banklaridan iborat. Yevropa bank tizimi esa 3 bosqichli. Yevropa Markaziy banki, hududiy banklar hamda tijorat banklardan iborat bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida tijorat banklari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Markaziy bankka hisobot topshirgani tufayli, markaziy bankning majburiyatlari oshib boradi hamda bu jarayon birmuncha qiyinchiliklar olib keladi.<sup>57</sup>

Mamlakatimizda bank tizimini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar sekin-asta o‘z samarasi bermoqda. Mamlakatimiz prezidenti tomonidan imzolangan juda ko‘p hujjatlarda bank hamda moliya tizimlarini takomillashtirishga deyarli barcha tashkilotlar jalb qilingan.



**1-rasm<sup>58</sup>. O‘zbekiston Respublikasi 2023-2024 yilda banklarning raqobatlilik darajalari to‘g‘risida:**

<sup>56</sup> “Pul, kredit va banklar” kitobi – “bank tizimini isloh qilish” mavzusi 2020 yil 30-35 sahifa.

<sup>57</sup> O‘zbekiston milliy axborot agentligi sayti – “Bank-moliya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” maqola 2022-yil.

<sup>58</sup> Aniq.uz web-sayti – “O‘zbekiston bank tizimidagi raqobat darajasi tahlili” maqolasi 2023-yil.

Tijorat banklarining jami kreditlar qoldig‘i 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, 471,4 trln. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning boshidagiga nisbatan qariyb 1,2 barobar oshdi. Milliy valyutada ajratilgan kreditlar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan nominal foiz stavkasi 2022-yil yakunidagi 22,3 foizdan 2023-yilda 24 foizgacha ko‘tarilgan. Bunda kreditning real foiz stavkasi sezilarli darajada, ya‘ni 10 foizdan 15,2 foizgacha ko‘tarilgan.

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash mumkin, mamlakatimizda bank-moliya tizimini takomillashtirish bosqichlari o‘z vaqtida hamda sifatli amalga oshirilmoqda. Bir necha yillardan so‘ng davlatimizni ushbu yo‘nalishda jahon reytingida yuqori o‘rinda ko‘rsak ajab emas. Bank-moliya tizimi nafaqat iqtisodiyotga balki, ijtimoiy sohalarga bevosita va bilvosita o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shu sababdan bu islohotlarni samarali kechishi mamlakatimiz aholisiga ham bog‘liq.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.***

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 12.09.2023 yildagi “Respublikada bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari.*
2. *O‘zbekiston milliy axborot agentligi sayti – “Bank-moliya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” maqola 2022-yil.*
3. *Bank.uz web-sayti – “O‘zbekiston bank tizimining barqarorligini saqlamoqda” maqola 2023-yil.*
4. *Aniq.uz web-sayti – “O‘zbekiston bank tizimidagi raqobat darajasi tahlili” maqolasi 2023-yil.*
5. *“Pul, kredit va banklar” kitobi – “bank tizimini isloh qilish” mavzusi 2020 yil 30-35 sahifa.*

## **AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHNING IQTISODIYAHAMIYATI**

***Nematullayev Hamidullo Azizillo o‘g‘li***  
*Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti*  
*talabasi*

Bugungi kunda mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar iqtisodiy negizi keskin o‘zgarib bormoqda. Бозор муносабатлари uchun turli mulk shakllariga asoslangan korxonalar amaliy faoliyat olib bormoqdaki, ularning tahlilini olib borish, baholash, ular tuzilmasidagi o‘zgarishlarni keng ilmiy tadqiq etish, ular faoliyatiga ta‘sir qiluvchi omillarni o‘rganish bu borada ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish o‘z navbatida dolzarblik kasb etadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tashkil etish jamiyatning samarali faoliyat yuritishi va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishda katta ahamiyatga ega. Asosiy muhim jihatlar quyida keltirilgan:

1. Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish: Korporativ boshqaruv muhim qarorlar qabul qilishda shaffoflik va adolatni ta‘minlash, shuningdek, ularga jamiyat faoliyatini nazorat qilish imkoniyatini berish orqali aksiyadorlarning